



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDAGI
QIYINCHILIKLARNING PEDAGOGIK-PSIXALOGIK ASOSLARI VA ZAMONAVIY
TA'LIM STRATEGIYALARI: MUAMMO VA YECHIMLAR” TAJRIBA SINOV
NATIJASI**

Ismoilova Sarvinoz Ixtiyorjon qizi

Qoʻqon DU 1-bosqich magistranti

90.150.50.06

Annotatsiya: *Mazkur ishda maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarning pedagogik-psixologik asoslari hamda ularni bartaraf etishda zamonaviy ta'lim strategiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda bolalarning nutq rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar — ijtimoiy muhit, oilaviy tarbiya, psixologik xususiyatlar va pedagogik yondashuvlar keng yoritilgan. Shuningdek, nutqdagi kamchiliklar, ularning kelib chiqish sabablari va bolalarning individual rivojlanish darajasi o'rganilgan. Ishda zamonaviy ta'lim strategiyalari, xususan, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish orqali bolalar nutqini rivojlantirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar va individual yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bolalarning nutq faolligini oshiradi, ularning so'z boyligini kengaytiradi hamda muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur ish amaliy ahamiyatga ega bo'lib, maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari uchun nutq rivojlantirishda samarali metod va strategiyalarni qo'llash bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Kalit soʻzlar: *Maktabgacha ta'lim, nutq rivojlanishi, nutqdagi qiyinchiliklar, pedagogik-psixologik asoslar, bolalar psixologiyasi, til rivoji, kommunikativ ko'nikmalar, individual yondashuv, zamonaviy ta'lim strategiyalari, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, innovatsion texnologiyalar, tarbiyachi faoliyati, nutq nuqsonlari, rivojlantiruvchi muhit*

Аннотация: *В данной работе анализируются педагогические и психологические основы трудностей, возникающих в процессе развития речи у дошкольников, а также роль современных образовательных стратегий в их преодолении. В исследовании подробно рассматриваются факторы, влияющие на развитие речи детей - социальная среда, семейное воспитание, психологические характеристики и педагогические подходы. Также были изучены речевые недостатки, их причины и уровень индивидуального развития детей. В работе обоснованы возможности развития детской речи с использованием современных образовательных стратегий, в частности интерактивных методов, дидактических игр, информационно-коммуникационных технологий. Результаты исследования показывают, что образовательный процесс, организованный*



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



на основе инновационных подходов и индивидуального подхода, повышает речевую активность детей, расширяет их словарный запас и развивает коммуникативность.

Ключевые слова: дошкольное образование, развитие речи, речевые трудности, педагогические и психологические основы, детская психология, развитие языка, коммуникативные навыки, индивидуальный подход, современные образовательные стратегии, интерактивные методы, дидактические игры, инновационные технологии, деятельность педагога, нарушения речи, развивающая среда

Abstract: *This work analyzes the pedagogical and psychological foundations of difficulties encountered in the process of speech development in preschool children, as well as the role of modern educational strategies in overcoming them. The study extensively examines factors influencing children's speech development—the social environment, family upbringing, psychological characteristics, and pedagogical approaches. Speech deficiencies, their causes, and the level of individual development of children were also studied. The work substantiates the possibilities for developing children's speech through the use of modern educational strategies, specifically interactive methods, didactic games, and information and communication technologies. The results of the study show that the educational process organized on the basis of innovative approaches and an individual approach increases children's speech activity, expands their vocabulary, and develops communication skills. This case*

Keywords: *preschool education, speech development, speech difficulties, pedagogical and psychological foundations, child psychology, language development, communicative skills, individual approach, modern educational strategies, interactive methods, didactic games, innovative technologies, educator's activities, speech disorders, developing environment*

Maktabgacha yosh davri bolaning har tomonlama rivojlanishida, ayniqsa nutq shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bola atrof-muhitni anglaydi, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab bolalarda nutq rivojlanishida turli qiyinchiliklar kuzatiladi. Bu esa keyingi ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar bir qator pedagogik va psixologik omillar bilan bog'liq. Psixologik jihatdan bolaning individual rivojlanish darajasi, temperament xususiyatlari, xotira va diqqatning rivojlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bolalarda tortinchoqlik, ishonchsizlik yoki muloqotga kirishishda qiyinchiliklar nutqning sust rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Pedagogik omillar esa ta'lim jarayonining qanday tashkil etilganiga bog'liq. Agar tarbiyachi tomonidan bolaga yetarli e'tibor berilmasa, individual yondashuv qo'llanilmasa yoki ta'lim metodlari bir xillik kasb etsa, bolalarda nutq faolligi pasayadi. Shuningdek, oilaviy muhit ham muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar bilan muloqotning yetarli emasligi, bolaga kam e'tibor



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



qaratilishi nutq rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutq rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etishda zamonaviy ta'lim strategiyalaridan foydalanish muhim hisoblanadi. Jumladan, interfaol metodlar bolalarni faol ishtirok etishga undaydi. Didaktik o'yinlar orqali bolalar erkin fikrlashni, o'z fikrini ifodalashni o'rganadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Shuningdek, individual yondashuv asosida ishlash katta samara beradi. Har bir bolaning nutq rivojlanish darajasi hisobga olinib, unga mos metod va usullar tanlanishi lozim. Masalan, nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan maxsus mashqlar, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga oid o'yinlar o'tkazish tavsiya etiladi.

Tadqiqot ishining samarali yakunlanishida tajriba-sinov ishlarining ilmiy-amaliy va tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu sababli Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish o'quv-tarbiya jarayoni asosida bolalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishda tajriba-sinov ishlari samarali va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etilishiga e'tibor qaratildi. Tajriba-sinov ishlarining maxsus dastur asosida tashkil etilishi esa ularning muvaffaqiyatli va samarali yakunlanishini kafolatlaydi. Mazkur fikrga tayangan holda tadqiqotni olib borish davrida dastlab "Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishdagi qiyinchiliklarning pedagogik-psixologik asoslari va ularni bartaraf etish yo'llari" nomli maxsus dasturning ishlab chiqildi, va shu asosida tajriba sinov ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari Qo'qon shahar maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagidagi 29-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti (Milliy gvardiya) tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilari sinaluvchilar sifatida tanlab olindi. Ana shu maqsadda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan sinaluvchi tarbiyachilar o'rtasida maxsus so'rovnoma o'tkazildi. Biz so'rovnomaning og'zaki tarzda amalga oshirdik, negaki, tarbiyachilar og'zaki so'rovnomada o'zlarini erkin tutishlari, bizning mavzuumiz doirasida ham fikrlarini ochiq bayon etishlari barchamizga ayon.

Tajriba maqsadi:

Bolalarda nutq rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va didaktik o'yinlar hamda zamonaviy pedagogik metodlar orqali ularni bartaraf etish samaradorligini tekshirish.

Tajriba vazifalari: Bolalarning nutq darajasini aniqlash, Nutqdagi kamchiliklarni tahlil qilish, Maxsus mashg'ulotlar va o'yinlar tizimini ishlab chiqish, Natijalarni solishtirish va baholash

Tajriba bosqichlari:

1. Aniqlovchi bosqich:

Bu bosqichda bolalarning nutq rivojlanish darajasi kuzatildi va baholandi.

Natijada quyidagi muammolar aniqlandi:

So'z boyligining kamligi

Tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish

Gap tuzishda qiyinchilik

Erkin fikr bildira olmaslik

2. Shakllantiruvchi bosqich:



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Bu bosqichda quyidagi metodlar qoʻllanildi:

Didaktik oʻyinlar (soʻz topish, hikoya tuzish, rolli oʻyinlar)

Rasmlar asosida gap tuzish

Savol-javob usuli

Artikulyatsion mashqlar

Ertak va sheʼrlar bilan ishlash

Mashgʻulotlar muntazam va tizimli ravishda olib borildi.

3. Nazorat bosqichi:

Tajriba yakunida bolalarning nutq rivojlanish darajasi qayta baholandi va dastlabki natijalar bilan solishtirildi. Tajriba boshida past darajadagi bolalar soni koʻp boʻlgan boʻlsa, yakunda oʻrta va yuqori darajadagi bolalar soni oshgani kuzatildi. Umuman olganda, nutq rivojlanishini samarali tashkil etish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, tarbiyachilar malakasini oshirish va ota-onalar bilan tizimli hamkorlikni yoʻlga qoʻyish zarurligi aniqlandi. Tajriba-sinov jarayonida individual yondashuvga asoslangan nutq rivojlantirish modeli ishlab chiqilib, uning samaradorligi amaliyotda isbotlandi. Nutq rivojlanishiga taʼsir qiluvchi psixologik omillar (uyatchanlik, ishonchsizlik, muloqotga kirishishdagi qiyinchiliklar)ni kamaytirishga qaratilgan maxsus oʻyin va mashqlar tizimi yaratildi.

Xulosa qilib aytganda, Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda uchraydigan qiyinchiliklar koʻp qirrali boʻlib, ularni bartaraf etish kompleks yondashuvni talab etadi. Pedagogik va psixologik omillarni chuqur tahlil qilish hamda zamonaviy taʼlim strategiyalarini qoʻllash orqali bolalarning nutq faolligini oshirish, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda ularning muvaffaqiyatli taʼlim olishiga mustahkam zamin yaratadi. 29-DMTT tajribasi nafaqat ushbu muassasada, balki boshqataʼlim tashkilotlarida xam maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda interaktiv pedagogik metodlardan foydalanish yuqori natija beradi va ularni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
2. Sh.M. Mirziyoyev. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
3. Vygotskiy L.S. *Myshlenie i rech* (Tafakkur va nutq). – Moskva: Pedagogika, 1982.
4. Leontev A.A. *Psixologiya rechi* (Nutq psixologiyasi). – Moskva: Nauka, 1997.
5. Elkonin D.B. *Psixologiya igry* (Oʻyin psixologiyasi). – Moskva: Pedagogika, 1978.
6. Jalolov J.J. *Maktabgacha pedagogika.* – Toshkent: Oʻqituvchi, 2015.
7. Qodirova F.R. *Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi.* – Toshkent: Fan, 2019.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



8. Nurkeldiyeva D.M. *Bolalar psixologiyasi*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2018.
9. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
10. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ularni ta’lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha metodik qo‘llanma. – Toshkent, 2020.